



## LIFE EDUCATION BEHIND THE LAMP

**Toshpulatova Dilorom Bobonazarovna**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,  
Acting Associate Professor

**Saydullayeva Mashhura Salohiddinovna**

First-year Master's student in the "Uzbek Language and Literature"  
program, Tashkent University of the Humanities  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15447994>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 16<sup>th</sup> May 2025

Online: 17<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

*Didactic story, faith, generation, kindness, tolerance, culture and spirituality, patriotism and pedagogy.*

### ABSTRACT

*This story is a work of creativity that provides spiritual nourishment to a person in the genre of our literature. The story genre is a work that reflects the issues of the era and the hero, the social life and character of people, therefore, the story genre is considered a work with a very high artistic level in world and Uzbek literature, covering real events, and reflecting a didactic meaning. This article is a work that reflects people in the story "Fanorchi Ota" on the basis of patriotism, tolerance, the ability to resist harmful currents, determination in life, faith, education, and kindness.*

## CHIROQ ORTIDAGI HAYOTIY TARBIYA

**Toshpulatova Dilorom Bobonazarovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), vb dotsent.

**Saydullayeva Mashhura Salohiddinovna**

Toshkent gumanitar fanlar universiteti fanlar universiteti "O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishining 1-bosqich magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15447994>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 16<sup>th</sup> May 2025

Online: 17<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

*Didaktik hikoya, insonparvarlik, avlod, mehr -oqibat, bag'rikenlik, madaniyat va ma'naviyat, vatanparvarlik va pedagogika.*

### ABSTRACT

*Ushbu hikoya adabiyotimiz janrida insonga ma'naviy ozuq beruvchi ijod mahsulidir. Hikoya janri davr va qahramon masalasi, insonlarning ijtimoiy hayoti va xarakterlari aks etgan asar bo'lib, shu boisdan hikoya janri jahon va o'zbek adabiyotida badiiy saviyasi baland, real voqealar yoritilgan, didaktik ma'no aks etgan asardir. Ushbu maqola "Fanorchi ota" hikoyasida insonlarni vatanparvarlik, bag'rikenglik, zararli oqimlarga qarshi kurasha olish, hayotga bo'lgan qat'iylik, ishonch, mehr-oqibat asosida aks etgan.*

### Kirish.

O'zbek adabiyotida hikoya janri tom ma'noda yuqori mazmunga ega bo'lgan, kitobxonlar sevib o'qiydigan janrdir. Hikoyada mazmun va hayotiy voqealar, insonlarga ma'naviy ozuqa bo'ladigan katta mazmuni o'z ichiga oladigan hajm jihatidan roman va qissalardan ajralib turadi. Maqolamizda tahlil qilinayotgan hikoya O'zbekiston xalq yozuvchisi Muso



Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Fanorchi ota" asari bo'lib, hikoyada davr va qahramon masalasi asosiy vazifadir.

XX asr insonlarining hayoti, turmush tarzi bayon qilinib, insonni qay ahvolda bo'lganliklarini ko'z oldimizda gavdalantira olamiz. Bu esa mutolaachini yanada o'qib, o'rganishga o'sha davr qiyofasini ongida gavdalantirishga undaydi. Asar esa albatta adibni sermahsul ijod namunasi. Adib asarni yaratar ekan inson o'z farzandini qanday voyaga yetkazib u bilan faxrlanib yashasa, bir asarni ham xuddi farzand kabi chin qalbdan, e'tibor ila namayon qilinishini gavdalantirgan. Bu asarni kitobxon qiziqish va e'tibor ila mutolaa qilsalar, mantiqiy fikrlashga, o'zlariga qanday xarakterga va vatanparvarlik, bag'rikenlik, mehr-oqibat, hayotga bo'lgan ishonchi va zararli oqimlardan yiroqlashib manaviy ozuqaga ega bo'lishlariga turki bo'ladi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Hotam Umirovning gaplarini keltirish mumkin: "...Ha hayot haqiqati dars bermoqlik, insonni ma'naviy poklikka yetaklamoq uchun o'zlikni anglash va uni tinimsiz ijodiy mehnat orqali boyitish zaruratga aylanishi kerak. Ana shu zaruriyat sizni jism-u joningizga quvonch, quvvat, qudrat baxsh etishi lozim. Siz orqali insoniy tuyg'ular yanada boyib, yanada komillashib, odamlar hayotini go'zallashtirishga beminnat xizmat etishi talab qilinadi"[1]. Shu boisdan yoshlikdan berilgan e'tiborli tarbiya farzandni komil inson darajasiga yetishishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotimizda hikoya janri inson hayotida ixcham voqeani lo'nda ifoda etishga mo'ljallangan didaktik janr. Asarda "Fonarchi ota" hikoyasi o'zbek xalqining mehnatkash, halol va samimiy, bag'rikeng insonlari haqida so'zlaydi. Fanorchi otani tasvirlab eng muhim g'oyalaridan biri insoniy fazilatlarining ahamiyatini ko'rsatibgina qolmay mehnat va halollik, insoniy qadriyatlar, yurtparvarlik, to'g'rilik, insonparvarlik g'oyalarini ulug'lashni ko'rsatib beradi. Yozuvchi hayotning xususan, oddiy jihatlariga, har bir mehnat turi va uning inson hayotidagi o'rnini ta'kidlaydi. Fanorchi ota hech qanday katta shon-shuhratsiz, faqatgina o'z mehnatining haqiqatiga, samimiyligiga va har bir ishda farzanga tarbiyani to'g'ri yetkazishni amalga oshirgan bo'lib, Fanorchi otani bergan lo'nda gaplariga "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan naql hozirgi kunda o'sib kelayotgan yoshlar uchun hayot haqiqati.

O'zbek adabiyotimizga muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli kitobidagi ushbu fikrlariga to'xtalib o'tamiz: "...Atoqli adibimiz Abdulhamid Cho'lponning "Adabiyot yashasa millat yashar" degan hikmatli so'zlari bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda milliy o'zligimizni saqlab qolish, xalqimizni ong-u tafakkurini yuksaltirish va shu orqali mamlakatimizni izchil taraqqiy ettirish uchun avvalambor adabiyot, ma'daniyat va san'at sohalarini qo'llab quvvatlashimiz zarur." [2] Aytishimiz mumkin, adabiyot birinchi o'rinda ma'naviyatimizni yuksaltiribgina qolmay, yangi taraqqiyotga sababchidir.

Demak, adabiyotimizda hikoya juda qadimdan bitiktoshlarda bayon etilgan bo'lib, "...ilk bor adabiy yozma yodgorliklar "O'rxun-Enasoy" asosan VI-VIII asr voqealarini aks ettiradi. "Kultegin" bitiktoshi va "To'nyuquq" bitiktoshlari bo'lib, "To'nyuquq" bitiktoshi kompozitsion jihatdan yirik asar. Unda o'ziga xos boshlanma, voqealar rivoji, xotima mavjud. Shu kompozitsiyani o'zida ham katta badiiylik bor. Bu maqsad to'raligicha amalga oshgan. Yodgorlikni til xususiyatlari ham e'tiborga loyiq. U VIII asrdagi adabiy til namunasi. Asar tildagi ko'plab so'zlar hozirgi o'zbek tilida aynan qo'llaniladi. Bir qism so'zlarda ozgina tovush



o'zgarishi yuzaga kelgan, yana bir toifa so'zlar esa bugungi istemoldan chiqib ketgan. To'nyuq bitiktoshining 'vatanparvarlik, ruhi bilan sug'orilgan qadimiy nodir badiiy asar va juda katta ma'rifiy hamda badiiy-estetik ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib turibdi.' [3]. Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida ham ahloqiy harakterdagi hikoyalari aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Bobomiz Alisher Navoiy "Hayrat ul -abror" dostonida va davrlar osha XVI asrda yaratilgan Poshshoxojaning asarlarida hikoyaning yaralishida asosiy manbaalardan bo'lib kelmoqda. XX asr boshlarida hikoyanavisligiga Cho'lpon, A.Qodiriy, G'.G'ulom, A. Qahhor, Shukur Holmirzayev va Oybek kabi hikoya janriga katta hissa qo'shganliklarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybekni "Fanorchi ota" mashhur hikoyalaridan biri bo'lib insoniylik va bolalik haqidagi ma'naviy ozuqaligi bilan ajralib turadi. Asarda fanor orqali aks etgan hayotiy masalalar va farzandning fanor asosida tarbiya tushunchasi yani ma'naviyatni aks etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Hikoya tor qiyshiq kochani churuk darvoza tepasidagi fanorni hayotda insoniyat tushunchasiga katta o'zgarish kiritganligi korishimiz mumkin va fanorni past bo'yli, burshuq yuzli chol kelib har safar yoqib ketar va u cholni fanorchi ota der edi. Mahalla bolalari esa fanorni qayta -qayta sindirishib Fanorchi otani sabrini sinar va unga ham zarar yetkazishga harakat qilishar edi, lekin Fanorchi ota mahalla bolalariga mehr-oqibatlilik, sabr, insonparvarlik, bag'rikenglik, ma'naviyat, ma'daniyat, vatanparvarlik, hurmat, ishonch, farzand tarbiyasida juda kerakli va zararli oqimlarga qarshi bo'ladigan hikoya hisoblanadi.

Adabiyot asosida ma'naviyat tushunchasiga yana bir bor Yurtboshimiz Prezidentimizning fikrlarini asos qilib aytsak "...Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi -ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insoning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi"[4], deya asosiy tushuncha berganliklari va bu fikrlari tastig'i sifatida O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybekning "Fanorchi ota" hikoyasini yuqoridagi fikrlarga to'g'ri talqin qilinganligini misol qilib keltirish mumkin. Hikoya esa o'quvchilarimiz tomonidan e'tibor va tushuncha asosida, o'quvchilarimizni qiziqishlari ila o'qib kelinmoqda.

O'zbek adabiyotimizda yana bir adibimiz Nabi Jaloliddinning "Ota" hikoyasida ham hayotiy voqealar sabab insoniy tarbiyani aks etganini ko'rishimiz mumkin. Hikoyada otaning farzandlariga bergan sabr, mehr, bag'rikenlik, insoniylik, mehr-oqibat, insoniyat qadr-qimmatini, farzandlarga bo'lgan tarbiyadan ma'naviy ozuqa olish mumkin.

**Xulosa:** "Fanorchi ota" hikoyasida o'sha davrning hayotiy kechinmalari asosida ya'ni birgina chiroq ortidagi qorongulik va yorug'lik ila insoniyat tarbiyasi asosida ma'naviy yuksalishi, o'quvchilarning kattalarga nisbatan hurmat, mehr-oqibatli, vatanparvarlik ruhida ulg'ayishlari uchun katta namuna bo'ladigan hikoya hisoblanadi. Hikoya o'quvchini o'qish malakasini rivojlantirish va personajlarning xatti-harakatlatini muhokama qilishib, baholash ko'nikmasini ham o'stiradi. O'quvchilarimizni hikoya va tarbiya, sabr, mehnat, ishonch, vatanparvarlik orqali tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni bosh mezonlardan biri sifatida qarash muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoyalar yosh avlodni ko'rsatilgan ruhda tarbiyalashi asosiy quroldir.



## References:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". To'ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023 242-257-b.
2. Ahmedov S, Qosimov B, Qo'chqorov S, Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To'rtinchi nashr. Sharq. Toshkent 2020. 7-b.
3. Hotam Umirov. Adabiy ijod asoslari. Darslik. Samarqand. Samarqand Davlat Universiteti nashri, 2019. 108-b.
4. Abdulla Oripov, Umarali Normatov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov va boshq.; "XX asr O'zbek hikoyasi antalogiyasi". "Ozbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2016, 31-b.
5. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinf va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining o'quvchilari uchun darslik majmua. Birinchi nashr. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2017.33-b.